| <b>Odamboyeva Mehribon Norimon qizi</b>                                                                                                                            |     |
| O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....                                                                               | 981 |
| <b>Qurbanova O'g'iloy Axrorovna</b>                                                                                                                                |     |





|                                                                                                                                                   |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari ..... | 985  |
| <i>Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi</i>                                                                                                          |      |
| Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari .....                          | 989  |
| <i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>                                                                                                         |      |
| Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi .....                                                       | 992  |
| <i>Shermatova Yukut Sabirovna</i>                                                                                                                 |      |
| Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi .....                                             | 995  |
| <i>Soliyeva Diyora Bobur qizi</i>                                                                                                                 |      |
| O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari .....                                                                            | 998  |
| <i>Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi</i>                                                                                 |      |
| Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                           | 1001 |
| <i>Tojibayeva Nazokatxon</i>                                                                                                                      |      |
| Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....                                           | 1005 |
| <i>Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li</i>                                                                                                            |      |
| Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida .....                                                           | 1008 |
| <i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</i>                                                                                                            |      |
| Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....                           | 1011 |
| <i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>                                                                              |      |
| 5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari .....               | 1015 |
| <i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>                                                                                 |      |
| Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida .....                                               | 1018 |
| <i>Xoshimova Y. I.</i>                                                                                                                            |      |
| Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni .....                                                                | 1023 |
| <i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>                                                                                                               |      |
| Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi .....                             | 1026 |
| <i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>                                                                                                              |      |
| Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников .....                                                                               | 1029 |
| <i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>                                                                                                             |      |
| Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов .....                          | 1033 |
| <i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>                                                                                |      |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish .....                                                      | 1038 |
| <i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>                                                                                                             |      |
| Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni .....                                                                        | 1041 |
| <i>Haydarova Namuna</i>                                                                                                                           |      |
| Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners .....                                                | 1044 |
| <i>Mohigul Nizomiddinova</i>                                                                                                                      |      |
| Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish .....                   | 1049 |
| <i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>                                                                                                              |      |
| Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi .....                                                                         | 1053 |
| <i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>                                                                                                              |      |
| Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari .....                                               | 1056 |
| <i>Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi</i>                                                                                                           |      |
| Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari .....                                                             | 1059 |
| <i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>                                                                                                             |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari .....                                        | 1062 |
| <i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>                                                                                                            |      |
| Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....                                                                      | 1067 |
| <i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>                                                                                                       |      |
| Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish .....                                      | 1071 |
| <i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>                                                                                                             |      |

|                                                                                                                                                     |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....                        | 1073 |
| <b>Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich</b>                                                                                                             |      |
| Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi .....                           | 1076 |
| <b>Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li</b>                                                                                                         |      |
| Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari .....                                     | 1081 |
| <b>Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi</b>                                                                                                          |      |
| Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari .....                                                                | 1084 |
| <b>Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna</b>                                                                                                             |      |
| Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari .....                                                                                      | 1091 |
| <b>Adizova Nigora Baxtiyorovna</b>                                                                                                                  |      |
| Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida) .....                                                          | 1096 |
| <b>Almuratova Gulbaxor Mansur qizi</b>                                                                                                              |      |
| Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli .....                          | 1100 |
| <b>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</b>                                                                                                              |      |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili .....                            | 1106 |
| <b>Axadova Mahliyo Xalimovna</b>                                                                                                                    |      |
| Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..                                                | 1109 |
| <b>Bakhtiyor Suvonkulov</b>                                                                                                                         |      |
| Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati .....         | 1113 |
| <b>Daminova Shoxista Farxodovna</b>                                                                                                                 |      |
| Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir .....                                                                              | 1117 |
| <b>Dilmurod Alimov</b>                                                                                                                              |      |
| Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari .....                                                                                         | 1121 |
| <b>Ergashov Ma'murjon Mominjonovich</b>                                                                                                             |      |
| Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari .....                      | 1125 |
| <b>G. Sh. Tursunova</b>                                                                                                                             |      |
| 6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar .....                                   | 1130 |
| <b>G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi</b>                                                                                                             |      |
| Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish .....                          | 1138 |
| <b>Inadullayeva Sevara Qahramonovna</b>                                                                                                             |      |
| Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar .....                                                      | 1141 |
| <b>Isabayeva Asida Yusufjonovna</b>                                                                                                                 |      |
| Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....                                               | 1146 |
| <b>Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna</b>                                                                                   |      |
| Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....                                                                  | 1149 |
| <b>Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna</b>                                                                                                   |      |
| Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....                                                    | 1155 |
| <b>Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich</b>                                                                                 |      |
| Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati .....                                                   | 1160 |
| <b>Kaljanov Damir Maxsetbayevich</b>                                                                                                                |      |
| Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions .....                                                                | 1165 |
| <b>Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich</b>                                                                                 |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish .....                                                            | 1171 |
| <b>Komilova Farog'at Numonjon qizi</b>                                                                                                              |      |
| Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....                                                                                            | 1176 |
| <b>Marimbayeva Bibidona Rinat qizi</b>                                                                                                              |      |
| Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi                                       | 1180 |
| <b>Matchanova Malika Maxmudovna</b>                                                                                                                 |      |
| Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar:<br>Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda ..... | 1183 |
| <b>Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li</b>                                                                                                         |      |



|                                                                                                                                                                                             |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar .....                                                                 | 1187 |
| <b>N. Sh. Djumaniyazova</b>                                                                                                                                                                 |      |
| Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari .....                                                                                                  | 1190 |
| <b>Nazarova Mohinur Atxam qizi</b>                                                                                                                                                          |      |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi .....                                                                                          | 1195 |
| <b>Nishonova Durdona Olimjon qizi</b>                                                                                                                                                       |      |
| Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .....                                                                       | 1201 |
| <b>Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna</b>                                                                                                                                                    |      |
| O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar .....                                                  | 1205 |
| <b>Otahanova Manzura G'ofurovna</b>                                                                                                                                                         |      |
| Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi .....                                | 1210 |
| <b>Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi</b>                                                                                  |      |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash .....                                                           | 1214 |
| <b>Qurbonova Asal Dilshod qizi</b>                                                                                                                                                          |      |
| O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari .....                                                                                                                             | 1218 |
| <b>Safarova Madina Azamat qizi</b>                                                                                                                                                          |      |
| Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....                                                                                                            | 1222 |
| <b>Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi</b>                                                                                                                                                    |      |
| Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish ..... | 1227 |
| <b>Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi</b>                                                                                                                                                |      |
| Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari .....                                                                                                     | 1231 |
| <b>Sherov Dilshod Reyimberganovich</b>                                                                                                                                                      |      |
| Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar .....                                                                                                      | 1236 |
| <b>Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi</b>                                                                                                                                                 |      |
| Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati .....                                                                                                         | 1239 |
| <b>Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna</b>                                                                                                                       |      |
| Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish .....                                                                                         | 1242 |
| <b>Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi</b>                                                                                                                                                       |      |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari .....                                                                                                         | 1247 |
| <b>Xayitov Jonibek Xolboboyevich</b>                                                                                                                                                        |      |
| Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish .....                                                                   | 1250 |
| <b>Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna</b>                                                                                                                                                     |      |

# SOG'LOM TURMUSH TARZI VOSITASIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING JISMONIY SALOMATLIGINI PEDAGOGIK STRATEGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li**

P.f.f.d.(PhD), v.b dotsent,

Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti

**ORCID: 0009-0007-4319-8503**

**Norqulov Shokir Muzaffarovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

**Karimova Mohinur Abduljalol qizi**

Erkin tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sog'lom turmush tarzi asosida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan. O'rta yosh davrida talabalar organizmida fiziologik o'zgarishlar, gormonal muvozanatning pasayishi, mushak va suyak tizimining zaiflashuvi kuzatiladi. Ushbu davrda jismoniy faollikning yetishmasligi salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqotda sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlari – muntazam jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, psixologik muvozanat va sog'lom odatlarning o'rnini tahlil qilinadi. Metodik yondashuv sifatida moslashtirilgan aerobik mashqlar, yurish, suzish, statik va dinamik harakatlardan iborat mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom turmush tarzi, oliy ta'lim muassasasi talabalari, jismoniy salomatlik, aerobik mashqlar, sog'lomlashtirish metodikasi, mashg'ulotlar tizimi.

**Abstract:** This article discusses the methodological foundations of developing the physical health of students in higher education institutions based on a healthy lifestyle. The middle-age period is characterized by physiological changes in the body of students, a decrease in hormonal balance, and a weakening of the musculoskeletal system. Lack of physical activity during this period can have a negative impact on health. The study analyzes the role of the components of a healthy lifestyle – regular physical exercise, proper nutrition, psychological balance, and healthy habits. As a methodological approach, a system of exercises consisting of a complex of adapted aerobic exercises, walking, swimming, static, and dynamic movements has been developed.

**Key words:** healthy lifestyle, students of higher education institutions, physical health, aerobic exercises, health improvement methodology, training system.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методические основы формирования физического здоровья студентов высших учебных заведений на основе здорового образа жизни. Период среднего возраста характеризуется физиологическими изменениями в организме студентов, снижением гормонального баланса, ослаблением опорно-двигательного аппарата. Недостаток физической активности в этот период может оказывать негативное влияние на здоровье. В исследовании анализируется роль компонентов здорового образа жизни – регулярных физических упражнений, правильного питания, психологического равновесия и формирования здоровых привычек. В качестве методического подхода разработана система упражнений, состоящая из комплекса адаптированных аэробных упражнений, ходьбы, плавания, статодинамических движений.

**Ключевые слова:** здоровый образ жизни, студенты высших учебных заведений, физическое здоровье, аэробные упражнения, методика оздоровления, система тренировок.



## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda sog'liq inson hayotining eng asosiy qadriyatlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari talabalari organizmida yuzaga keladigan fiziologik va psixologik o'zgarishlar ularning jismoniy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Gormonal muvozanatning pasayishi, suyak va mushak tizimi faolligining kamayishi, yurak-qon tomir tizimidagi xavf omillarining ortishi, psixologik stress va harakatsizlik – bu yoshdagi talabalar salomatligi uchun muhim xavf manbalaridir. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari talabalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash bugungi kunda nafaqat tibbiyot, balki jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasining ham dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi <sup>[1]</sup>.

Shu nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzining shakllantirilishi, ya'ni jismoniy faollik, muvozanatli ovqatlanish, stressni boshqarish va salbiy odatlardan voz kechish orqali salomatlikni mustahkamlash masalasi alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun maxsus ishlab chiqilgan sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashg'ulotlar tizimi nafaqat ularning umumiy jismoniy holatini tiklaydi, balki ruhiy barqarorlik, o'z-o'ziga ishonch va ijtimoiy faollikni ham oshiradi. Mazkur tadqiqotda aynan sog'lom turmush tarzi vositasida o'rta yoshdagi talabalar jismoniy salomatligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ishlab chiqiladi, samarali mashg'ulotlar kompleksi asoslanadi hamda natijalarni baholash mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Bu yo'nalish orqali nafaqat talabalar salomatligi, balki ularning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi barqarorligi, faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy salohiyati mustahkamlanadi <sup>[2]</sup>. O'rta yoshda sog'liqning ahamiyati shundaki, o'rta yosh davri (taxminan 20–30 yosh oralig'i) inson hayotining biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'ziga xos o'sishga ega bo'lgan bosqichidir. Bu davrda inson organizmi yoshlikdagi maksimal funksional faollik bosqichidan asta-sekin pasayish holatiga o'tadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayniqsa, yurak-qon tomir tizimi, gormonal muvozanat, suyak zichligi, mushak massasi, modda almashinuv darajasi va psixoemotsional barqarorlikda muayyan o'zgarishlar kuzatiladi. Shu sababli aynan talabalar salomatligi sog'liqni saqlash, mustahkamlash va hayot sifatini barqaror ushlab turish nuqtai nazaridan eng muhim davr hisoblanadi <sup>[3]</sup>. Oliy ta'lim muassasasi talabalar sog'lig'ini e'tiborsiz qoldirish nafaqat tana a'zolarining eskirishini tezlashtiradi, balki surunkali kasalliklarning (yurak ishemik kasalligi, gipertoniya, diabet, osteoporoz va boshqalar) erta boshlanishiga ham olib keladi. Shu bilan birga, bu davr ko'plab ijtimoiy va psixologik omillar bilan murakkablashgan bo'lib, insonning kasbiy faoliyati cho'qqisiga chiqishi, oilaviy mas'uliyatining ortishi va hayot falsafasining o'zgarishi bilan kechadi. Stress, tashvish, psixologik toliqish, noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik va zararli odatlar (masalan, chekish yoki spirtli ichimliklar iste'moli) kabi omillar salomatlikni jiddiy xavf ostiga qo'yadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aynan o'rta yoshda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ya'ni muntazam jismoniy faoliyat, to'g'ri ovqatlanish, stressni boshqarish va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash orqali kasalliklarning oldini olish, qarish jarayonini sekinlashtirish va faol hayot kechirish imkoniyati sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, talabalar uchun bu davrda gormonal o'zgarishlar fonida suyak massasi yo'qolishi yoki ortishi, metabolik sindromlar, tana vazni ortishi, uyqusizlik va ruhiy holatning beqarorligi keng tarqalgan muammolar qatoriga kiradi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun individual yondashuv asosida sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur hisoblanadi <sup>[4]</sup>.

Sog'liq faqat organizm funksiyalarining yaxshi ishlashi emas, balki shaxsning psixologik, ijtimoiy va ruhiy barqarorligining ham me'yorda bo'lishidir. Oliy ta'lim muassasasi talabalar sog'lom inson mehnatga layoqatli, ijtimoiy faolligi yuqori, oilada va jamiyatda mas'uliyatli pozitsiyaga ega bo'ladi. Demak, bu davrdagi sog'liqni muhofaza qilish jamiyatning umumiy demografik barqarorligi, iqtisodiy faolligi va ijtimoiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalar sog'liqni yo'qotmaslik uchun emas, balki uni ongli ravishda asrash va mustahkamlash uchun eng mas'uliyatli bosqichdadir. Bu davrda qabul qilingan har qanday sog'lom qaror – kelajakdagi qarilik davrining faol, mustaqil va barqaror kechishiga asos bo'ladi. Shu sababli o'rta yoshdagi sog'liqni rivojlantirish individual mas'uliyat bilan bir qatorda, butun jamiyat salomatligiga xizmat qiladigan strategik muhim vazifadir <sup>[5]</sup>. Oliy ta'lim muassasasi talabalar o'qish davri inson hayotining eng faol va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. Bu davrda inson ko'pincha kasbiy faoliyatining eng yuqori cho'qqisida bo'ladi, oilaviy majburiyatlar, ijtimoiy roli va iqtisodiy yuklamalar ortadi. Aynan shunday davrda sog'liqqa yetarlicha e'tibor qaratilmasligi, noto'g'ri hayot tarzi va sog'lom odatlarning yetishmasligi bir qator xavfli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy manbalarga ko'ra, talabalar ko'pincha quyidagi xatolar va xavf omillariga duch keladilar:

*Birinchidan*, kamharakatlik (gipodinamiya) bu yoshdagi eng keng tarqalgan va xavfli omillardan biridir. Muntazam jismoniy faoliyatning yetishmasligi yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik, qandli diabet, suyak zichligining pasayishi va muskul kuchsizlanishiga olib keladi. Talabalar ko'pincha o'qish va ish bilan bandlikni bahona qilib, jismoniy mashg'ulotlarga vaqt ajratmaydilar, bu esa sog'liq uchun katta xavf tug'diradi <sup>[6]</sup>.

*Ikkinchidan*, noto'g'ri ovqatlanish – yog', shakar va tuzga boy, kaloriyasi yuqori, lekin foydali moddalarga kambag'al parhezlar metabolik sindrom, gipertoniya va qandli diabet xavfini oshiradi. Talabalarda moddalar almashinuvi sekinlashadi, biroq bu holat ko'pchilik tomonidan inobatga olinmaydi. Tez tayyor ovqatlar, kechki ovqatlanish, yetarli suyuqlik ichmaslik va tartibsiz ovqatlanish bu yoshda eng ko'p uchraydigan xatolardir.

*Uchinchidan*, stress va psixologik bosimlar. Talabalar ko'plab ijtimoiy bosimlarga duch keladilar: ishdagi mas'uliyat, oilaviy muammolar, moliyaviy qiyinchiliklar, talabalarning erta turmushga chiqishi, o'z bolalarining o'sib yetilishi yoki qarigan ota-onaga qarash masalalari – bularning barchasi ruhiy zo'riqishni kuchaytiradi. Stressni boshqara olmaslik uyqusizlik, ruhiy tushkunlik, xavotirlik va hatto yurak xurujlariga olib kelishi mumkin <sup>[7]</sup>.

*To'rtinchidan*, profilaktika va tibbiy ko'rikni e'tibordan chetda qoldirish. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ko'pincha sog'ligini faqat muammo paydo bo'lgach eslaydilar. Muntazam tibbiy ko'riklardan o'tmaslik, organizm signaliga e'tibor bermaslik kasalliklarning kech aniqlanishiga olib keladi. Ayniqsa yurak, o'pka, jigar, suyak va talabalarning yoki erkaklar salomatligiga oid maxsus ko'riklar muntazam ravishda o'tkazilishi zarur.

*Beshinchidan*, yomon odatlar – chekish, spirtli ichimliklar iste'moli va turli dorilarni shifokor nazoratisiz qabul qilish holatlari ham bu yoshda sog'liq uchun katta xavf tug'diradi. Bu odatlar yurak-qon tomir tizimi, nafas yo'llari, jigar va asab tizimlariga kuchli zarar yetkazadi. Shuningdek, uyqu gigiyenasi va dam olishning yetishmasligi, haddan ortiq ishlash, psixologik siqilishlar, faol ijtimoiy hayotdan chetlashish, sportdan uzoqlashish kabi ko'rinmas xavflar ham o'rta yoshdagi insonlarning sog'lig'ini asta-sekin zaiflashtiradi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari sog'liq uchun xavf soluvchi xatolar ko'pincha odat tusiga kirgan noto'g'ri turmush tarzining natijasidir. Bu xavflarni erta aniqlash, tushunish va ularni bartaraf etishga harakat qilish – kelajakdagi sog'lom qarilik va faol hayotning poydevoridir. Ongli ravishda qabul qilingan har bir sog'lom qaror bu yoshdagi inson uchun qimmatli investitsiya hisoblanadi <sup>[8]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo miqyosida o'rta yoshdagi insonlar salomatligi global sog'liqni saqlash tizimlarining e'tibor markazida turibdi. Bu yosh davrida yuzaga keladigan sog'liq muammolari, ko'pincha bevosita turmush tarzi, noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik, ruhiy bosim va profilaktik choralar yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi talabalari orasida yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn, gipertoniya va diabet holatlari so'nggi yillarda sezilarli darajada ortmoqda. Xususan, 2025-yil holatiga ko'ra, jahon bo'yicha kattalarning qariyb 60 foizi ortiqcha vazn yoki semizlikka ega. Bu ko'rsatkich ayniqsa o'rta yoshdagi talabalar va erkaklar orasida yuqori. Semizlik yurak ishemik kasalligi, II-tip diabet, jigar kasalliklari va ortopedik muammolar xavfini bir necha barobar oshiradi. Bu esa nafaqat salomatlik, balki insonning mehnatga layoqatini, ruhiy holatini va ijtimoiy faoliyatini pasaytiradi <sup>[9]</sup>. Shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklari ham o'rta yoshdagi insonlar o'limining asosiy sababi bo'lib qolmoqda.

Notekis ovqatlanish, stress, chekish va spirtli ichimliklar iste'moli, shuningdek jismoniy faollikning yetishmasligi – bu muammolarni kuchaytirayotgan omillardir. Ayrim mamlakatlarda, masalan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Osiyo davlatlarida sog'lom turmush tarziga e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, baribir bu yosh guruhida surunkali kasalliklar soni ortib bormoqda <sup>[10]</sup>. Yana bir dolzarb masala – bu ruhiy salomatlik muammolari. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining hisob-kitoblariga ko'ra, talabalardagi har besh kishidan biri depressiya, xavotirlik yoki doimiy ruhiy zo'riqish holatlarini boshdan kechiradi. Bu holatlar ko'pincha sezilmasdan qoladi yoki e'tiborsiz qaraladi, natijada insonning umumiy salomatligi va ijtimoiy faolligi jiddiy darajada yomonlashadi. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda, ayniqsa past va o'rta daromadli hududlarda, o'rta yoshdagi aholining muntazam tibbiy ko'riklardan o'tmasligi, sog'liq haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi ham xavfli kasalliklarning erta aniqlanmasligiga olib kelmoqda. Bu holat kasallikning kech aniqlanishi, davolash xarajatlarining oshishi va mehnatga layoqatsizlik darajasining yuqoriligi bilan yakunlanadi.



## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, butun dunyo miqyosida o'rta yoshdagi insonlar salomatligi jiddiy tahdid ostida. Ammo sog'lom turmush tarzi, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish va muntazam tibbiy profilaktika choralari orqali bu xavflarning oldini olish mumkin. Global darajada olib borilayotgan sog'lomlashtirish dasturlari, sog'liqni saqlash bo'yicha innovatsion yondashuvlar hamda jamoatchilikni ongli tarzda jalb etish bu muammoni yumshatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Butun dunyo miqyosida o'rta yoshdagi insonlar salomatligi jiddiy e'tiborni talab qiladigan global sog'liq muammolaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bu yosh davrida organizmda yuzaga keladigan tabiiy fiziologik o'zgarishlar bilan bir qatorda, noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik, stress, zararli odatlar va muntazam tibbiy ko'riklarga e'tiborsizlik kabi omillar salomatlikka bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aynan shu sababli yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn, qandli diabet, suyaklar va bo'g'imlar bilan bog'liq muammolar, shuningdek ruhiy tushkunlik va stress kabi surunkali holatlar o'rta yoshdagi insonlar orasida tobora keng tarqalmoqda. Biroq bu holat hal qilib bo'lmaydigan muammo emas.

Butun dunyoda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, aholini jismoniy faollikka jalb etishga, sog'lom ovqatlanishni rag'batlantirishga va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlar tobora ommalashmoqda. Sog'liqni saqlashning zamonaviy pedagogik strategiyalari faqat kasallikni davolashga emas, balki uni oldini olishga yo'naltirilmoqda. Bu borada davlat siyosati, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash sohasi va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lig'ini muhofaza qilish va rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar shaxsiy darajada emas, balki tizimli, davlat va jamiyat miqyosida olib borilishi zarur. Har bir mamlakat, har bir jamoa va har bir inson sog'liqni o'zining asosiy boyligi sifatida qadrlashi lozim. Chunki sog'lom oliy ta'lim muassasasi talabalari – bu sog'lom oila, sog'lom ishchi kuchi, barqaror iqtisodiyot va kuchli jamiyat garovidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization (WHO). (2023). World Health Statistics 2023: Monitoring Health for the SDGs. Geneva: WHO Press.
2. World Obesity Federation. (2023). Global Atlas on Childhood Obesity. London: WOF Publications.
3. American Heart Association (AHA). (2022). Heart Disease and Stroke Statistics – 2022 Update. Dallas: AHA Scientific Reports.
4. Kayumov Shokhruxh. Enhancing Students' Physical Qualities: Contemporary Challenges and Strategic Solutions. International Journal of Environmental Sciences, Vol. 11, No. 21s, 2025. ISSN: 2229-7359. Sayt: <https://theaspd.com/index.php>
5. GBD 2020 Risk Factors Collaborators. (2021). "Global burden of 87 risk factors in 204 countries and territories, 1990–2020." The Lancet, 398(10385), 1223–1249.
6. Kayumov Shokhruxh. Pedagogical Strategies for Developing Sports and Health Immunity in Students Based on Innovative Systems. Journal of the Scholarship of Teaching and Learning, Vol. 25, No. 2, June 2025, pp. 93–109. doi:10.14434/josotl.v25i2.36793. Sayt: <https://josotl.indiana.edu>
7. Singh, G. M., Danaei, G., Farzadfar, F., et al. (2020). "The age-specific association of systolic blood pressure with cardiovascular disease." The Lancet Global Health, 8(9), e1132–e1140.
8. WHO Regional Office for Europe. (2022). Healthy Ageing in Action: Health Systems Responding to the Needs of Older Populations. Copenhagen.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-226-sonli Farmoyishi. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. Qayumov Sh.A. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi. Monografiya. T.: Ziyo chashmasi, 2023. 109 b.
11. Qayumov Sh.A. Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyasi. Monografiya. T.: Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2025. 165 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.